

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-12/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdullaev X.D. Badiiy nutqning psixologik funksiyasi	5
Abulkasimova Yu.S. Kiberxavfsizlik ta'limida nutqiy va leksik kompetatsiyalarini zamonaviy texnologiyalar asosida o'rganish	8
Adilova D.K. O'zbek va rus she'riy matnlarida "ayol" leksik birligining lingvistik realizatsiyasi	10
Alimova M.R. Tarjimada kognitiv lakunalar muammosi	13
Allaberganova D.A. Omon Matjon she'riyatida fonografik vositalarning qo'llanilishi haqida	16
Aripova S.T. Linguocultural features of the translation of stories in English and Uzbek	19
Azimbayeva N.T. Akademik Bo'riboy Axmedov ilmiy merosi	23
Bannopova Z.X. Ingliz va o'zbek tilida kiyim dizayni va moda terminologiyasining lingvomadaniy xususiyatlari	27
Bo'ronov I.Q. "Favoyid ul-kibar" va "Badoyi' ul-vasat" devonida Husayn Bayqaro siymosining aks etishi	30
Botirova H.A. Linguistic-Pragmatic Study of Phraseological Units in English-Uzbek Literary Translations	35
Boboyev T. Xajviy she'rlar tilshunoslik nazariyasi ob'yekti sifatida	38
Bozorova D.I. The connection between stylistics and pragmatics	41
Davurova U.J. Kuzatuvchining matn va diskursdagi vazifasi	44
Davurova U. Matn kommunikativ - pragmatik nazariya sifatida	47
Eshonqulova S.I. Nodira she'riyatining diniy-ma'rifiy, falsafiy-tasavvufiy va axloqiy g'oyalari	50
Gavxaroy Isroiljon qizi Turizm terminologiyasining tarjimadagi strategik jihatlari	56
Hamroyeva G.T. Sharof Boshbekovning konflikt yaratish mahorati	59
Haydarov A.A. Badiiy tasvirda ritm, qofiya va ohangning o'rni va ahamiyati	63
Ibragimova D.Sh. Lexical units related to the education system in a comparative study of different languages	66
Jabborova Z.T. Notions of translation with fiction and non-fiction sources	69
Jumaniyozova M.X. Xorazm vohasi paremiologik birliklari lug'aviy qatlamlariga oid ayrim qaydlar	71
Jumayeva Sh.Sh. Nasriy asar tarjimasiga xos xususiyatlar	74
Juraeva B.N., Melikulova M.X., Kholmatova G.B. National-cultural lexicon in linguistics	77
Khabibullaeva M.E. Comparative analysis of the translations of Qadiri's novel "Bygone days"	79
KHAbibulloeva G.K., KHushbakova N.N. Cognitive analysis of english and uzbek idiomatic words	82
Madaminov A. Ot propositiv nomlanishli so'z birikmalarining gap qurilishidagi o'rni	85
Maripova X.M. Harbiylar nutqida qo'llaniladigan harbiy va noharbiy frazeologik birliklar	88
Matenova F.M. Words as the main unit of language and speech	91
Murodova D. Exploring american identity in james Fenimore Cooper's "The pioneers"	93
Nashirova Sh.B. Ikki tilli o'quv lug'atlarda polisemiyaning til birligi sifatida ifodalanishi	96
Otarova U.B. "Xamsa" tarkibidagi dostonlarda Jomiy timsoli	99
Qabulova D.R. Xorazm mintaqaviy ayol ismlarida tarkibida ayol jinsini ifodalovchi indikatorlar	102
Qo'chqarov T. Sak-massaget eposi va uning o'ziga xos xususiyatlari	104
Qurbonova G.A. Qadimgi ingliz gidronimlarining kelib chiqish tarixi va yasalishi	109
Rahimova M.O. Lingvistik nazariyada mantiqiylik	111
Raxmatova D.N. Hoji Muin dramasining til va uslub xususiyatlari	114
Raxmonqulova F.A., Jumayeva S.M. Shoir Aleksandr Faynberg ijodining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni	117
Sabirova D. Erkin A'zamning "Shovqin" romanida polifonik nutq ko'rinishi	120
Salimova D.A. Tavsifiy lirikaga xos tavsif vositalarining badiiy-estetik ahamiyati	123
Saloxiddinov M.Sh. Harakatning konseptual turlari va munosabatlari tadqiqoti	127
Shomurotova B.O'. Afsonaviy qushlar inson tafakkuri umumiyliги ifodasi sifatida	131
Shukurova B.B. Hikoyada kontrast usulining poetik- funksional o'rni	135
Talibjanova A.L., Agzamkhodjaeva S.A. Youth slang as a form of expression of youth culture	137
Tugalov I.X. Rus va o'zbek tillarida zamon tushunchasini ifodalovchi so'zlarni solishtirish	140
Turayeva D.M. Punktatsion tizimdagi yangi an'analar va ularning o'zbek punktatsiyasiga ta'siri	143

Badiiy asarning g'oyasini yoritishdagi ishtiroki yoki qo'llanish ko'lamiga ko'ra konfliktni ikki turga ajatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Yetakchi konflikt
2. Yordamchi konflikt

Bu haqida "Adabiyotshunoslik nazariyasi" kitobining birinchi tomida konflikt birligi, syujet chizig'ida yotuvchi ziddiyatning ham asosiy va yordamchi turlari haqida nazariy ma'lumotlar berib o'tilgan.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, badiiy asarda konflikt o'tkirlashib borgan sari uning estetik saviyasi ham ortib boradi. Ijodkorlar hayotdagi ziddiyatlarini o'z asariga olib kirar ekanlar, uni bo'rttiribroq, yorqinroq tasvirlashga intiladilar, bu esa asarni emotsional ruhini ko'taradi. Inson paydo bo'libdiki, u ziddiyatlar qurshovida yashaydi, ana shu ziddiyatlar uning ongini o'stirib boradi, mana shu ijtimoiy ziddiyatlarni badiiy yo'sinda adabiyotga olib kirilishi va uning badiiy asarda aks etishi, o'tkir syujetli asarlarning dunyoga kelishiga omil bo'ladi, bunday o'tkir ziddiyatlarga ega bo'lga syujet, albatta, o'quvchini badiiy asarga qiziqishini ortiribgina qo'ymay, uni ongiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Sharof Boshbekovning "Mehr va mauzer" kinoqissasida konfliktning har bir turidan mahorat bilan foydalangan. Ushbu asarda insonlarning ijobiy tomonlarini ulug'laydi, salbiy tomonlarini qoralaydi. Adabiyot inson ongiga ta'sir o'tkazish uchun hayotning salbiy va ijobiy tomonlarini yoritadi, bu narsa, albatta, konflikt bilan amalga oshiriladi, shundan kelib aytish mumkinki, badiiy asarni badiiy jihatdan yuqori darajaga ko'taruvchi, uni insoniyat ruhiy olamiga ta'sir o'tkazishiga ko'maklashuvchi unsurlardan biri bu – konfliktidir. Zero, konfliktidan chekingan asarlar badiiylkdan yiroqlashish bilan bir qatorda adabiyotda ham muhim o'rin egallamaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.Rashidov "O'zbekiston kommunisti", 1961, 7-son, 15-bet
2. I.Sulton. Adabiyot nazaryasi. T: "O'qituvchi" nashryot va matbaa ijodiy uyi. 2005-yil.110-bet
3. Adabiyot nazariyasi. I tom, "FAN" nashryoti, 1978-y.224-bet
4. Sharof Boshbekov. Musofir bo'lmaguncha. "Yangi asr avlodi", 2011-yil. 3-bet
5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

UO'K 801.6

BADIIY TASVIRDA RITM, QOFIYA VA OHANGNING O'RNI VA AHAMIYATI

A.A.Haydarov, prof., f.f.n., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada stilistik figuralar ritm, qofiya hamda supersegment fonetik vosita intonatsiya (ohang) haqida fikr yuritilgan, shuningdek, ingliz va o'zbek nazmiy va nasriy asarlaridan olingan misollar ritm, qofiya va ohang asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ritm, qofiya, intonatsiya (ohang), supersegment, ohangdorlik, alliteratsiya, emotsional-ekspressiv.

Аннотация. В данной статье рассматриваются стилистические фигуры ритм, рифма и надсегментарный фонетический инструмент интонации (тона), а также анализируются примеры из английских и узбекских поэтических и прозаических произведений на основе ритма, рифмы и тона.

Ключевые слова: ритм, рифма, интонация (тон), суперсегмент, интонация, аллитерация, эмоционально-выразительная.

Abstract. This article highlights the stylistic figures of rhythm, rhyme and the supersegmental phonetic tool intonation (tone), as well as the examples taken from English and Uzbek poetic and prose works are analyzed based on rhythm, rhyme and tone.

Key words: rhythm, rhyme, intonation (tone), supersegment, intonation, alliteration, emotional-expressive.

Zamonaviy tilshunoslikda sotsiolingvistika, pragmatik lingvistika, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya, lingvopoetika kabi yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Lingvopoetikada nutq tovushlari, ularda ifodalangan qo'shimcha ma'nolar, tovushlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari o'rganiladi. Tovushlardagi ma'nolar tahlil qilinganda ritm, qofiya kabi

stilistik hodisalar muhim fonostilistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolamizda stilistik figuralar ritmi, qofiya hamda supersegment fonetik vosita intonatsiya (ohang) haqida fikr yuritamiz.

Ritm. Tilshunoslikda davriylikni hosil qilish maqsadida nutqning qayta takrorlanadigan maqsadli joylashtirilishi bo'lib, uning maqsadi ma'lum davriylikni hosil qilishdan iborat. Ritm nutqda ma'lum tartibda davriylik hosil qiluvchi faktor hisoblanadi. Ritm faqat qofiyani rostlash uchun she'riyatda emas, balki prozaik asarlarda ham namoyon bo'ladi.

Mashhur ingliz yozuvchisi Charlz Dikens asarlarida bunday holatni ko'rish mumkin. Jumladan, uning "A tale of two cities" asarining boshlanishida nasriy ritmdan foydalanganligini ko'ramiz.

It was the best of times,

It was the worst of times.

It was the age of wisdom,

It was the age of foolishness.

It was the epoch of belief,

It was the epoch of incredulity.

It was the season of light,

It was the season of Darkness.

It was the spring of hope,

It was the winter of despite.

We had everything before us

We had nothing before us.

We were all going direct to Heaven We

were all going to the other way.

Quyidagi ingliz tilida berilgan nutq parchasi baland ovozda o'qilsa, u ritm asosida shakllanganini ko'rish mumkin. "The high-slopping roof, of a fine sooty pink was almost Danish and two dueky little windows looked out of it, giving an impression that very tall servants lived up there (I.Yalsworthy).

Yuqoridagi parcha tahlil qilinsa "high slopping", «fine sooty», "duekly little» kabi iboralar ritm asosida shakllanganligini ko'rish mumkin. Ritmning ayniqsa, she'riyatda ahamiyati juda katta. U misralarni bir biriga bog'lashda hamda so'zlarda o'zaro ohangdoshlik hosil qilishda muhim fonostilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Ritmga asoslangan she'r o'quvchini zeriktirmaydi, unga zavq baxsh etadi.

Quyida alliteratsiyaga asoslangan she'riy parcha ritm nutqining qayta takrorlanishi natijasida ma'lum davriylik hosil qiladi.

Susan Simpson

Sudden swallows swiftly skinning,

Sunsets slowly spreading shade.

Silvery songsters sweetly singing.

Summers soothing seradi.

Susan Simpson strolled sedately,

Slipping sobs, suppressing sighs.

Seeing Stephen slocum statly

She stopped, showing some surprise. (B.Franklin)

Yuqoridagi she'riy parchada «s» tovushining takror ishlatilishi alliterativ holat bo'lib, ritmiy davriylikni ifodalab, she'rni ohangdorlik asosida o'qilishini ta'minlaydi. Ritmiy davriylik asosida o'qilgan she'r kitobxonga zavq bag'ishlaydi, unda o'sha so'zlardan o'rinli foydalanilganlikni ko'rsatadi.

Qofiya. Bir turdagi yoki bir biriga o'xshash tovushli birikmalarning so'z oxirida kelishidir [1]. Qofiyaning to'liq, bo'sh, unlilar, undoshlar qofiyasi kabi turlari mavjud. Qofiya she'riyatda katta ahamiyat kasb etadi, u she'rni shakllantiradi, nasriy asarlardan she'riy asarlari farqlaydi, shu bilan birga ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Qofiya she'r ta'sirchanligini oshiradi, ohangdorlikni ta'minlaydi. She'ming asosiy g'oyasini ifodalash uchun ba'zan she'rda uning asosini tashkil etuvchi so'zlarni qofiyalashtiradi.

Ingliz tilida:

It was many and many years ago.

In a kingdom by the sea.

That a maiden there lived whom you may know.

By the name of Annable Lee:

And this maiden she lived with no other thought

Than to love and be loved by me. (E.A.Pae)

Qofiyaning ahamiyati she'ming ohangdorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Shu sababdan qofiya she'rning g'oyasini ifodalash vositasi hisoblanadi. Xalq tomonidan yaratilgan maqol va matallarning ko'pchiligi qofiyaga asoslanib yaratilgan.

Better late, than never. (Hech bo'lmagandan kech bo'lgani yaxshiroq.)

It is never too late to learn. (O'qishning kechi bo'lmaydi.)

Maqol va matallardan tashqari, xalq dostonlarida ham qofiya ko'p uchraydi.

*Oltin edim, **cho'yan** bo'ldi,*

*Don edim, **somon** bo'ldim.*

*Qimmat edim, **arzon** bo'ldim,*

*G'amga qolgan **Ravshan** bo'ldim. (Jumanbulbul).*

Yuqoridagi she'riy misralarda **cho'yan**, **somon**, **arzon**, **Ravshan**, so'zlari o'zaro qofiyalangan. Quyidagi inglizcha she'riy parchada qofiya va ritm uyg'unligini ko'rish mumkin.

From "Sea dreams"

What does little birdie say,

In her nest at peep of day.

Let me fly, says little birdie,

Mother, let me fly away. (A.Tennyson)

Xuddi shu holatni o'zbek tilida keltirilgan she'riy parchada ham yaqqol ko'ramiz:

Bog'chalarda erkin sayrar qushchamiz,

Hoy bolalar biz ham ozod qushchamiz.

Biz yosh kuchlar har bir ishda chaqonmiz,

Keng osmonda uchishda ham qushchamiz. (Bolalar adabiyotidan)

Birinci qatordagi «qushchamiz «so'zi bizning kichik qushimiz, ikkinchi qatordagi «qushchamiz «so'zi biz kichik qush bo'lamiz, oxirgi qatorda esa ushbu so'z «qush «kabi (qadar)miz. Bu ma'no xususiyatlar she'r ohangining qofiya bilan uyg'unlashishi natijasida yoqimli bo'lishini ta'minlaydi [2]. Har qanday qofiya va ritmga asoslangan she'r intonatsiya bilan aytilgandagina uning ta'sirchanligi yuqori bo'ladi.

Intonatsiya (ohang) - (lot.intonore - baland tovush bilan talaffuz etaman) nutqning sintaktik ma'nolarni va ekspressiv-emotsional bo'yoqlarning ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik-melodik tomoni, ovozning baland pastligi, ohang [3].

Nuqt jarayonida ovoz ohangining ko'tarilish yoki pasayishi, undagi jumla urg'usi, nutq tempi, ovoz temбри, intonatsiyada ifodalangan konnotativ ma'no komponentlarini hosil qilishga yordamlashadi. Intonatsiya har qanday gapning asosiy va xarakterli belgisidir. U gap qurilishida alohida birlik sifatida ishtirok etadi. Shunga ko'ra, intonatsiya ikki vazifani bajaradi, ya'ni noemotsional gaplardan emotsional gap hosil qiladi. Shuningdek, so'zlovchining his - tuyg'usini ifodalaydi. Qofiyaga asoslangan har qanday she'rni intonatsiyasiz o'qish uni ta'sirsiz, to'mtoq holatga olib keladi, chunki intonatsiya she'riy nutqni ta'sirchan qilish bilan birga, kitobxonga zavq bag'ishlaydi hamda ohang jarangdorligi asosiy o'rinda bo' ladi. Shoir Hamid Olimjonning quyidagi she'rida ohangning tasviriy kuchini yanada kuchaytirish maqsadida ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ravishdoshlarni ketma-ket beradi: O'zbek tilida:

Ey, Farg'ona,

Mushkul kunlar bolasini tishida tishlab,yuvib,

tarab, sevib, o'pib, quchib, opichlab,

Ey baxtlarni balog'atga yetkazgan ona ! (H.Olimjon)

Shunday qilib, qofiya, ritm va ohangning uyg'unlashuvi she'ming asosiy g'oyasini ifodalash uchun, she'ming ohangdorligini ta'minlashda muhim fonostilistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Har uchchala stilistik figuralar asosida yaratilgan she'r kitobxonni zeriktirmaydi, uni oson yodlashga va xotirasida uzoq vaqt saqlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Haydarov, A. (2008). Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 6.
- 2.Askarovich, H. A. (2022). Some comments on the stylistic repetition. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 8 (1), 87–91.

3. Ahrorovna, N. N. (2022). Study of anthroponyms and their places in the lexical system. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 90-96.
4. Nazarova, N. A. (2022). Study of anthroponyms and their places in the lexical system (In *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, Volume 3, Issue 1, pp. 90-96).
5. Ahrorovna, N.N. (2022). Study of anthroponyms and their places in the lexical system. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 90-96.
6. Nazarova, N. (2023). Onimik leksemalarning o'ziga xos xususiyatlari. *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*, 34(34).
7. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). The main features of translation of phraseology from english into uzbek. *Scientific Impulse*, 1(3), 523-526
8. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Questioning techniques in teaching English // *Достижения науки и образования*. 2018. №5 (27).

UDC 811.134.2:811.111(045)

LEXICAL UNITS RELATED TO THE EDUCATION SYSTEM IN A COMPARATIVE STUDY OF DIFFERENT LANGUAGES

*D.Sh.Ibragimova, Associate Professor, Samarkand state architecture and construction
University, Samarkand*

Annotasiya. Ushbu maqolada so'zning juda noaniq tushunchasini almashtirish uchun ikkinchi til sifatida lug'atni o'rganish kontekstida taklif qilingan va kiritilgan "leksik element" tushunchasi ko'rib chiqiladi. Konseptsiya birinchi navbatda leksik semantika nuqtai nazaridan aniqlanadi va keyin ikkinchi til sifatida o'rganish vazifasi qo'llaniladi. Ikkinchisi leksik elementlarning har xil turlarini o'rganishni o'rganadigan ikkita eksperimental tadqiqotni tavsiflaydi.

Kalit so'zlar: tavsiflash, tajriba, leksik birlik, ketma-ket o'rganish, paradigma, kashf qilish, yangi noaniq.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие "лексическая единица", предложенное и введенное в контексте изучения словарного запаса второго иностранного языка для замены довольно расплывчатого понятия слова. Сначала это понятие определяется с точки зрения лексической семантики, а затем применяется к задаче обучения второго иностранного языка. Во втором описаны два экспериментальных исследования, в которых исследуется запоминание разных типов лексических единиц.

Ключевые слова: описывать, эксперимент, лексическая единица, последовательное обучение, парадигма, исследовать, новое неоднозначное.

Abstract. This article discusses the concept of "lexical unit" as proposed and introduced in the context of second language vocabulary learning to replace the rather vague notion of word. At first, this concept is defined in terms of lexical semantics and then applied to the second language learning task. The second describes two experimental studies in which the learning of different types of lexical units is examined.

Keywords: To describe, experimental, lexical unit, sequential learning, paradigm, to investigate, novel ambiguous.

Introduction. The importance of knowledge in a form, but not meaning for the learning of new meanings in lexical units is showed in this article. For familiar forms in comparing different languages in comparative analysis is an inductive investigative approach based on the distinctive elements in a language. The meaning of a given word or set of words is best understood as the contribution that word or phrase can make to the meaning or function of the whole sentence or linguistic utterance where that word or phrase occurs. [1] The meaning of a given word is governed not only by the external object or idea that particular word is supposed to refer to, but also by the use of that particular word or phrase in a particular way, in a particular context, and to a particular effect.

However, second language word acquisition includes multiple facets-not only learning novel word form and meaning but also learning additional meanings of already-learned words. A study using a sequential learning paradigm to investigate the learning of novel ambiguous second language words found that the later learned meaning representation is weaker than the first-learned one, which